



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2023 - yil 29 - dekabr

VI-60-194-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

2024-yilgi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24, 25-moddalariga, "Byudjet kodeksi"ning 99-moddasiga, "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrda 01/30-2-10351-sonli xatini inobatga olib hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrda (02-1156-sonli) Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun shakllantirilgan loyihasi bo'yicha xulosasini muhokama qilgan holda 2024-yilgi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlarini belgilash maqsadida Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sirdaryo viloyatining (keyingi o'rinlarda – viloyat) yalpi hududiy mahsulot bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun tuman (shahar)lar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq;

viloyat mahalliy byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar)lar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi

byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

mol-mulknii ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 6-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

avtotransport yig'implarning stavkalari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tomonidan:

Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatganlik uchun haq to'lash xarajatlari tuman va shahar Iqtisodiyot va moliya bo'limlari tomonidan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim qilingandan talabnomalar asosida tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratib borilishini;

Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari sud qarorlari asosida viloyat, tuman va shahar mahalliy byudjetlari orqali moliyalashtirib borilishini;

Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga transfertlarni har oyda ajratilgan mablag'lar doirasida o'tkazib berilishini ta'minlasin.

Bunda, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga ajratilgan transfertlarning oylar kesimida taqsimlangan miqdorlariga o'zgartirish kiritish hamda yillik ajratilgan qo'shimcha transfertga talabnomalar Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining takliflari asosida amalga oshiriladi va Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazilgan transfertlarni to'g'ri ishlatilishi (sarflanishi) bo'yicha Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi javobgar ekanligi belgilansin.

3. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga asosan (keyingi o'rinlarda – Qonun) O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo'llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

4. Qonunning 6-moddasiga asosan 2024-yil uchun respublika byudjetidan viloyat mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 901,8 milliard so'm (shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar 155,0 milliard so'm miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. 2024-yil uchun viloyat byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 15752,1 million so'm miqdorida belgilansin.

6. Tuman (shahar)lar byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli

byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman va shaharlar byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablagʻlari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

7. Viloyat hamda tuman (shahar)lar byudjetining olti oylik ijrosi yakunlari boʻyicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud boʻlmagan hollarda viloyat mahalliy byudjeti hamda tuman (shahar)lar byudjetining xarajatlarini qisqartirish boʻyicha qarorlar tegishincha Xalq deputatlari viloyat hamda tuman va shahar Kengashlari tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda byudjet tashkilotlarining va byudjet mablagʻlari oluvchilarning byudjet mablagʻlarini oʻzlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni kamaytirish Oʻzbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman (shahar)lar byudjetiga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan toʻlaydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar toʻlaydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq.

Viloyat byudjetiga quyidagilar:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi;

elektr stansiyalari tomonidan toʻlanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilgʻisini va gazni yakuniy isteʼmolchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi;

aylanmadan olinadigan soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan tushumlarning (jismoniy

shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) 100 foizi;

boshqa daromadlar 100 foizi;

foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) 100 foizi o'tkazilishi belgilangan.

Qonunning 12-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda undiriladigan quyidagi daromadlar viloyat byudjetida to'liq qoldirilsin (Hukumat qarorlari bilan alohida tegishli byudjetlarga taqsimlangan daromadlar bundan mustasno):

davlat bojlari;

jarimalar;

yig'imlar;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushumlar.

9. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishincha 2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, tuman (shahar) aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o'tkazib beriladi.

10. Qonunning 12-moddasiga asosan tuman (shahar)lar byudjetini barqarorligini ta'minlash maqsadida ayrim soliqlaridan ajratmalar me'yorlari 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shahar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Sirdaryo viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

11. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tuman va shaharlarning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to'lovi bo'yicha eng kam stavkalariga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy

belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat byudjetiga o'tkaziladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining mutlaq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 10-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutlaq miqdorida 1 kv. metri uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Minimal qiymat bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdorlari 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. 2024-yil uchun yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'imlar stavkalari 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

15. Viloyat, tuman va shaharlar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdorlari 14-ilovaga muvofiq belgilansin.

16. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladigan qo'shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyat, tuman (shahar)lar mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

17. Viloyat hokimligi choraklar yakuni bo'yicha daromad prognoz ko'rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko'rsatkichidagi mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilishini ta'minlasin.

Tuman va shahar hokimliklari choraklar yakuni bo'yicha daromad prognoz ko'rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko'rsatkichidagi mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga taklif

kiritsin.

18. Qonunga muvofiq:

Quyidagilar tegishincha viloyatning viloyat byudjetidan, tuman va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

Quyidagilar viloyatning viloyat byudjetidan moliyalashtiriladi:

viloyatning umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta‘mirlash va jihozlashga, shuningdek sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta‘mirlash hamda ta‘mirlash ishlariga doir xarajatlar, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

19. Qonunga muvofiq hududlarda barcha issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organlarning hududiy boshqarmasi hududiy bo‘linmalari xulosalariga ko‘ra, Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan ma‘qullanganidan so‘ng viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

Issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

20. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev zimmasiga yuklatilsin.

21. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e‘tiboran kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat

Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi U.Sotiboldiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Maxmudaliyev

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyatining yalpi hududiy mahsulot bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz
1	Yalpi hududiy mahsulot (milliard so'm)	25 723,6
2	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati (foizda)	105,5
3	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati (foizda)	107,2
4	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (foizda)	103,5
5	Xizmat ko'rsatishning o'sish sur'ati (foizda)	118,3
	<i>savdo, yashash va ovqatlanish xizmati o'sish sur'ati (foizda)</i>	<i>106,4</i>

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognoz prognozi

ming soʻmda

T/r	Daromad turlari	Miqdori
	Daromadlar miqdori (jami)	2 058 200 945
	<i>shu jumladan:</i>	
	Mahalliy daromadlar	1 156 438 926,0
	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori*	901 762 019
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi	120 674 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	633 509 807,0
3	Aksiz soligʻi (jami)	89 582 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	52 714 800,0
5	Yuridik shaxslar yer soligʻi	91 831 319,0
6	Davlat boji	56 341 000,0
7	Jarimalar	68 343 000,0
8	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	1 695 000,0
9	Yigʻimlar	29 648 000,0
10	Xususiylashtirish	12 100 000,0
11	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori*	901 762 019,0

* tamaki, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz soligʻi boʻyicha transfertlarni inobatga olgan holda.

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
3-ilova

**2024-yil uchun tuman va shaharlar mahalliy byudjetining daromadlari va
xarajatlari prognozlari**

ming soʻmda

№	Hudud nomi	Daromad *	Xarajat
	JAMI	345 651 074,0	812 892 526,0
1	Guliston shahri	59 714 127,0	104 226 779
2	Shirin shahri	16 063 377,0	44 664 401
3	Yangiyer shahri	24 133 693,0	59 626 458
4	Guliston tumani	26 473 974,0	65 845 151
5	Boyovut tumani	40 965 737,0	89 449 521
6	Sayxunobod tumani	27 044 559,0	66 577 131
7	Sardoba tumani	19 041 457,0	66 059 117
8	Mirzaobod tumani	26 574 582,0	71 013 459
9	Xovos tumani	28 974 154,0	83 958 509
10	Oqoltin tumani	24 021 458,0	56 378 434
11	Sirdaryo tumani	52 643 956,0	105 093 566

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz soligʻi boʻyicha transfertlarni inobatga olmagan holda.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Viloyat mahalliy byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori (jami)	2 058 200 945
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	525 150 156
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	2 337 000
	Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatganlik uchun haq to'lash xarajatlariga	1 100 000
	Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga transfertlar	842 396 644
	Zaxira jamg'armasi	15 752 073
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari	7 978 320
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	196 245 300
	Tuman va shaharlar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar**	467 241 452
1	Maktabgacha va maktab ta'limi ta'limi boshqarmasi	256 915 489
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	143 915 489
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	113 000 000
2	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi	53 424 056
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	53 424 056
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
3	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	50 069 885
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	28 924 885

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	21 145 000
4	Madaniyat boshqarmasi	34 675 113
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	34 675 113
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
5	Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi	59 018 804
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	59 018 804
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
6	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	1 224 182
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 224 182
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
7	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	40 192 071
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	40 192 071
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
8	Quyi irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	85 826 165
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	23 725 865
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	62 100 300
9	Viloyat Transport boshqarmasi	1 309 086
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 309 086
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
10	Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi	12 203 473
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	12 203 473
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
11	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	1 338 983 433
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	25 908 337
	<i>shundan:</i>	

	- Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	7 491 583
	- Sirdaryo viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi	7 712 010
	- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi	6 539 868
	- Kadastr agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi	4 164 876
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	2 337 000
	Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatganlik uchun haq to'lash xarajatlariga	1 100 000
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar**	467 241 452
	Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga transfertlar	842 396 644
12	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	1 383 300
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 383 300
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
13	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	7 724 704
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 724 704
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
14	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi	11 779 333
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 779 333
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
15	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	9 552 749
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	9 552 749
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
16	Adliya boshqarmasi	11 850 745
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 850 745
	<i>shundan:</i>	
	- Adliya boshqarmasi	1 541 863
	- Adliya boshqarmasi huzuridagi yuridik xizmatlar markazi	1 732 602
	- Viloyat Adliya boshqarmasi (tuman va shahar bo'limlari)	1 180 373
	- Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi FHDYo bo'limi	1 552 020

	- Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi	2 256 388
	- Sirdaryo viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi hamda tuman va shahar arxivlari	3 587 499
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
17	Viloyat hokimligi	43 785 043
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	28 032 970
	<i>shundan:</i>	
	- Viloyat hokimligini saqlash xarajatlari	9 142 614
	- Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	605 381
	- Viloyat Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	7 430 979
	- Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasini xarajatlari	547 507
	- Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	3 852 533
	- Avtobus yo'nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	3 599 482
	- Sirdaryo viloyati hokimiyati huzuridagi "FUUBOXMOB" o'quv kursi	443 219
	- Alisher Navoiy nomidagi Sirdaryo viloyati Axborot-kutubxona markazi	2 411 255
	Zaxira jamg'armasi	15 752 073
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
18	Saylov komissiyasini saqlash xarajatlari	89 497
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	89 497
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
19	Viloyat Soliq boshqarmasi	17 564 034
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 564 034
	<i>shundan:</i>	
	- Sirdaryo viloyati Soliq boshqarmasi	16 359 476
	- Sud boshqaruvchilari	1 204 558
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	
20	Boshqa xarajatlar	20 629 783
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	12 651 463
	<i>shundan:</i>	

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hududiy bo'linmalari xarajatlari	3 186 075
- Viloyat hokimligining maxsus bazasini saqlash xarajatlari	1 024 925
- Ichki ishlar organlarining qo'shimcha shtatlarini saqlash xarajatlariga	5 314 632
- O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Sirdaryo viloyati chavandozlar maktabi	3 125 831
- Ichki va tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari***	7 978 320
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar*	

* Ushbu ajratilgan mablag' bo'yicha qurilish ta'mirlash obyektlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil uchun tasdiqlanadigan Investitsiya dasturi to'g'risidagi qarori va Vazirlar Mahkamasining bayonlari asosida aniqlashtiriladi va yil davomida o'zgartirish kiritib boriladi.

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha 155 022 724,0 ming so'm transfertlarni inobatga olgan holda.

*** Ushbu ajratilgan mablag'lar viloyat hokimligi orqali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda moliyalashtiriladi.

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
5-ilova

**2024-yil uchun viloyat, tuman va shaharlar mahalliy byudjetiga ajratiladigan
tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari**

ming soʻmda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Summa	<i>shundan, aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar*</i>
1	Viloyat byudjeti	434 520 567,0	
2	Guliston shahri	44 512 652,0	16 706 890,0
3	Shirin shahri	28 601 024,0	3 324 240,0
4	Yangiyer shahri	35 492 765,0	8 122 110,0
5	Guliston tumani	39 371 177,0	13 485 440,0
6	Boyovut tumani	48 483 784,0	23 543 840,0
7	Sayxunobod tumani	39 532 572,0	14 085 190,0
8	Sardoba tumani	47 017 660,0	11 960 420,0
9	Mirzaobod tumani	44 438 877,0	13 656 810,0
10	Xovos tumani	54 984 355,0	17 358 030,0
11	Oqoltin tumani	32 356 976,0	9 510 080,0
12	Sirdaryo tumani	52 449 610,0	23 269 674,0
	Jami	901 762 019,0	155 022 724,0

* tamaki, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz soligʻi boʻyicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar.

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
6-ilova

**2024-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun
belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari (so'mda)	
			Guliston shahri	boshqa aholi punktlari
1	Uy-joylar:			
	turar joy	umumiy maydonning	12 000	5 000
	noturar joy	1 kv. metri uchun	23 500	10 000
2	Avtomobil transporti:			
	yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	780 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 550 000	

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi. Bunda, ko'chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o'rtasidagi shartnomalardan tashqari) ham tatbiq etiladi.

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
7-ilova

**2024-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi
uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari**

T/r	Yig'implarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)		
		Guliston shahri	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	840 000	600 000	300 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	420 000	300 000	150 000

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
8-ilova

2024-yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlarning stavkalari

T/r	Yig‘im turi	Bitta avtotransport vositasi (avtopoyezd) uchun yig‘im stavkasi (AQSH dollarida)
1	Chet davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im (bundan 2-7 bandlarda ko‘rsatilgan davlatlar mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im, yuk ko‘tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im, yuk ko‘tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
6	Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	150

7	Afg‘oniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	50
---	---	----

Izohlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab chet davlatlarning og‘ir vaznli va yirik gabaritli yuk avtotransport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son qaroriga
9-ilova

2024-yil uchun tuman va shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

(foiz hisobida)

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to'lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
1	Guliston shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	3
2	Shirin shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
3	Yangiyer shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
4	Guliston tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
5	Boyovut tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

6	Sayxunobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
7	Sardoba tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
8	Mirzaobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
9	Xovos tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
10	Oqoltin tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
11	Sirdaryo tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	15

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
10-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo‘yicha 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga
kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (ming so‘m)
1	Guliston shahri	1,3	35 100,0
2	Shirin shahri	1,0	27 000,0
3	Yangiyer shahri	1,2	32 400,0
4	Guliston tumani	1,0	27 000,0
5	Boyovut tumani	1,0	27 000,0
6	Sayxunobod tumani	1,0	27 000,0
7	Sardoba tumani	1,0	27 000,0
8	Mirzaobod tumani	1,2	32 400,0
9	Xovos tumani	1,0	27 000,0
10	Oqoltin tumani	1,0	27 000,0
11	Sirdaryo tumani	1,2	32 400,0

Izoh: Shahar va tuman Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsiyentlari belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
11-ilova

**Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq
xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.
metri uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan
kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

so'mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2024-yil uchun
1	Guliston shahri	1,00	253,0
2	Shirin shahri	1,00	253,0
3	Yangiyer shahri	1,00	253,0
4	Guliston tumani	0,85	215,1
5	Boyovut tumani	0,85	215,1
6	Sayxunobod tumani	0,85	215,1
7	Sardoba tumani	0,80	202,4
8	Mirzaobod tumani	0,80	202,4
9	Xovos tumani	0,85	215,1
10	Oqoltin tumani	0,80	202,4
11	Sirdaryo tumani	1,00	253,0

Izoh: Shahar va tuman Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsiyentlarini belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
12-ilova

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha belgilangan
minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar**

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2024-yil uchun (so'm)
1	Guliston tumani	0,70	840 000,0
2	Boyovut tumani	0,80	960 000,0
3	Sayxunobod tumani	0,50	600 000,0
4	Sardoba tumani	0,50	600 000,0
5	Mirzaobod tumani	0,50	600 000,0
6	Xovos tumani	0,50	600 000,0
7	Oqoltin tumani	0,70	840 000,0
8	Sirdaryo tumani	0,90	1 080 000,0

Izoh: Yirik soliq to'lovchilardan tashqari

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
13-ilova

**2024-yil uchun yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk
avtotransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab
harakatlanish huquqi uchun yig‘imlar stavkalari**

T/r	Yig‘im turi	Bitta yuk avtotransport vositasi va tirkama uchun yillik yig‘imlar stavkalari (bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan koeffitsiyentda)
1.	Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im:	
1.1.	Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan 25 tonnagacha bo‘lgan	5
1.2.	Yuk ko‘tarish quvvati 25 tonnadan 35 tonnagacha bo‘lgan	8
1.3.	Yuk ko‘tarish quvvati 35 tonna va undan yuqori bo‘lgan	10

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-60-194-9-0-K/23-son
qaroriga
14-ilova

**Viloyat, shahar va tuman mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag'larining
yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori**

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	13 000 000,0
	<i>shundan</i>	
1	Guliston shahri	882 686,0
2	Shirin shahri	299 930,0
3	Yangiyer shahri	459 522,0
4	Guliston tumani	644 611,0
5	Boyovut tumani	835 553,0
6	Sayxunobod tumani	607 803,0
7	Sardoba tumani	499 742,0
8	Mirzaobod tumani	510 176,0
9	Xovos tumani	614 874,0
10	Oqoltin tumani	461 185,0
11	Sirdaryo tumani	1 015 154,0
12	Viloyat byudjeti	6 168 764,0